XALQARO VA MADANIYATLARARO TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA AMALIY YO'LLAR

Doniyorova Shohista Shodiyarovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
0009-0004-4370-9578
doniyorovashoxista29@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida xalqaro va madaniyatlararo ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik yondashuvlari va amaliy yo'llari tahlil qilinadi. Bunday muhit oliy ta'lim xalqarolashuvi sharoitida talabalar faoliyatini samarali tashkil etishning birinchi pedagogik sharti sifatida asoslanadi. Muhitning komponentlari, uni yaratish shakllari va talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini baholash mezonlari ko'rsatildi. Tajriba-sinov ishlari uchta oliy ta'lim muassasasida o'tkazildi. Xalqaro va madaniyatlararo muhit pedagogik shart-sharoitlar majmuasi tarkibida yaratilgan tajriba guruhlarida talabalar kompetensiyalarining rivojlanish darajasi nazorat guruhlariga nisbatan yuqori bo'ldi.*

Kalit so'zlar: *xalqaro ta'lim muhiti, madaniyatlararo kompetensiya, ichki xalqarolashtirish, pedagogik shart-sharoit, kompetensiyaviy yondashuv, talaba-markazlashgan ta'lim, oliy ta'lim.*

Abstract: *The article examines pedagogical approaches and practical ways of creating an international and intercultural learning environment in higher education. This environment is substantiated as the first pedagogical condition for organizing student activity effectively under internationalization. The components of the environment, forms of its creation and criteria for assessing intercultural competence are described. In an experiment conducted at three higher education institutions, students in the experimental groups reached a higher level of competence development than those in the control groups.*

Keywords: *international learning environment, intercultural competence, internationalization at home, pedagogical conditions, competence-based approach, student-centered learning.*

Kirish. Globallashuv sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarni faqat kasbiy bilim bilan ta'minlab qolmay, ularni turli madaniyatlar vakillari bilan hamkorlikda ishlashga ham tayyorlashi lozim. Bu vazifa talabalar faoliyati qanday

muhitda tashkil etilishiga bevosita bog‘liq. J. Knight va H. de Vit xalqarolashtirishni ta’lim, ilmiy-tadqiqot va institutsional faoliyatga xalqaro, madaniyatlararo va global o'lchovlarni kiritish jarayoni sifatida ta'riflaydi [1, 2]. Demak, xalqarolashtirish xorijiy hamkorlar bilan shartnoma tuzish yoki talabalarni xorijga yuborish bilan cheklanmaydi. Amalda barcha talabalar ham akademik mobillikda qatnasha olmaydi. D. Dirdorf madaniyatlararo kompetensiyani xalqarolashtirishning talabalar uchun asosiy natijalaridan biri deb hisoblaydi [5]. O‘zbekistonda ta’lim sohasini jahon makoniga integratsiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan [8]. Biroq mavjud tadqiqotlarda xalqaro va madaniyatlararo ta'lim muhitini talabalar faoliyatining pedagogik sharti sifatida kompleks asoslash va uning samaradorligini tajriba orqali tekshirish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi xalqaro va madaniyatlararo ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik yondashuvlarini aniqlash, uni yaratishning amaliy shakllarini tizimlashtirish va samaradorligini baholashdan iborat.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda nazariy, qiyosiy-tipologik va analitik tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, ekspert baholash tahlil usullaridan foydalanildi. Nazariy qismda ichki xalqarolashtirish, madaniyatlararo kompetensiya va ta’lim muhiti bo'yicha mahalliy va xorijiy manbalar o‘rganildi.

Talabalarning akademik, kommunikativ, madaniyatlararo, tadqiqotchilik va global kompetensiyalari mezonlar, ko'rsatkichlar va uch daraja (quyi, o‘rta, yuqori) bo'yicha tavsiflandi. Madaniyatlararo kompetensiya tolerantlik, moslashuvchanlik va madaniyatlararo hamkorlik ko'rsatkichlari orqali aniqlandi.

Natijalar. Pedagogik yondashuvlar. Tahlil natijasida xalqaro va madaniyatlararo muhitni shakllantirishda uchta yondashuvning integratsiyasi asosli ekani aniqlandi: kompetensiyaviy (muhit talabalarda aniq kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi), madaniyatlararo (turli madaniyatlar bilan muloqot va hamkorlik tajribasi yaratiladi) va talaba-markazlashgan (talaba faol subyekt sifatida o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etadi). Bu uch yondashuv birgalikda muhitning maqsad, mazmun va faoliyat jihatlarini belgilab beradi. Muhitni yaratish shakllari. Xalqaro va madaniyatlararo muhit xorijiy talabalar bilan qo'shma mashg'ulotlar, xalqaro seminarlar, madaniyatlararo loyihalar, xorijiy professorlar ma'ruzalari, akademik mobillik, virtual almashinuv va xalqaro talabalar klublari orqali tashkil etilishi mumkin

Mobillik va virtual shakllar bu muhitning bir qismi xolos. Mobillikda qatnasha olmaydigan talabalar uchun qolgan komponentlar, ayniqsa qo'shma akademik faoliyat va xalqaro tadbirlar, xalqaro tajribaning asosiy manbaiga aylanadi. Muhitni bosqichma-bosqich joriy etish. Amaliyotda muhitni yaratish uch bosqichda tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchi, tayyorgarlik bosqichida xorijiy hamkorlar

aniqlanadi, fan dasturlarida xalqaro hamkorlik uchun mos mavzular belgilanadi va o‘qituvchilar tayyorlanadi. Ikkinchi, amalga oshirish bosqichida talabalar kichik xalqaro guruhlarga biriktirilib, qo'shma mashg'ulotlar, madaniyatlararo loyihalar va xalqaro seminarlarda ishtirok etadi; mobillikda qatnasha olmaydiganlar virtual almashinuv orqali jalb qilinadi. Uchinchi, yakuniy bosqichda talabalar refleksiv hisobot va portfolio orqali o'z tajribasini tahlil qiladi, o'qituvchilar esa madaniyatlararo kompetensiya mezonlari bo'yicha natijalarni baholaydi.

Bu jarayonda o'qituvchining roli ham o'zgaradi: u bilimni yetkazuvchi emas, talabaning xalqaro hamkorlikdagi faoliyatini loyihalovchi, yo'naltiruvchi va unga teskari aloqa beruvchi hamkorga aylanadi. Talabalar esa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradigan, turli madaniyat vakillari bilan muloqotni o’zi tashkil etadigan faol subyekt sifatida ishtirok etadi.

Muhokama. Natijalar xalqaro va madaniyatlararo muhit talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik shart ekanini tasdiqlaydi va ichki xalqarolashtirishning mobillikka to'ldiruvchi, ko'pchilik talabalarni qamrab oladigan yo'l ekani haqidagi qarashlarga mos keladi [5, 6]. Kurrikulumga xalqaro va madaniyatlararo mazmun kiritish barcha talabalarga ta'sir qilishi haqidagi fikr ham shu bilan uyg'un [3].

Shu bilan birga, tajriba guruhlaridagi o‘zgarish faqat muhitning o’ziga bog'liq emas. Tajriba guruhlarida muhit boshqa to‘rtta shart (global kompetensiyalarga yo‘naltirilgan mazmun, raqamli texnologiyalar, ilmiy faoliyatga jalb etish va refleksiv hamkorlik) bilan birga, yagona model doirasida amalga oshirildi. Shuning uchun natijalarni birinchi shartning alohida ta'siri deb talqin qilish to'g'ri bo'lmaydi. Uning ulushini aniqlash uchun kelgusida faqat shu shart joriy etilgan guruhni boshqalar bilan solishtirish kerak.

Amaliyotda muhitni shakllantirishga quyidagilar xalaqit beradi: xorijiy hamkorlar va xorijiy talabalarning yetarli emasligi, o'qituvchilarning xalqaro hamkorlikni loyihalash tajribasi cheklanganligi, til to‘sig‘i va moliyaviy imkoniyatlar. Mazkur to'siqlarni kamaytirish uchun virtual almashinuv va qo'shma onlayn loyihalardan foydalanish, o'qituvchilar uchun amaliy treninglar o‘tkazish hamda xalqaro talabalar klublari kabi kam xarajatli shakllarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xalqaro va madaniyatlararo ta'lim muhitini shakllantirish oliy ta'lim xalqarolashuvi sharoitida talabalar faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy pedagogik shartidir. Uni yaratishda kompetensiyaviy, madaniyatlararo va talaba-markazlashgan yondashuvlarni birlashtirish, muhitni qo'shma akademik faoliyat, xalqaro tadbirlar, mobillik va virtual shakllar hamda ijtimoiy-madaniy muhit komponentlari orqali tashkil etish tavsiya etiladi.

Amaliy tavsiyalar: (1) o‘quv jarayoniga xorijiy talabalar bilan qo‘shma mashg'ulotlar va madaniyatlararo loyihalarni kiritish; (2) mobillikda qatnasha olmaydigan talabalar uchun virtual almashinuvni yo'lga qo'yish; (3) xalqaro seminarlar va xorijiy professorlar ma’ruzalarini muntazam o‘tkazish; (4) madaniyatlararo kompetensiyani uch darajali mezonlar asosida kuzatib borish; (5) muhitni boshqa pedagogik shart-sharoitlar bilan birga, yagona tizim sifatida joriy etish.

Adabiyotlar

1. Knight J. Internationalization remodeled: Definition, approaches, and rationales // Journal of Studies in International Education. 2004. Vol. 8, No. 1. P. 5–31.

2. de Wit H., Hunter F., Howard L., Egron-Polak E. (eds.). Internationalisation of Higher Education. Brussels: European Parliament, 2015.

3. Leask B. Internationalizing the Curriculum. London: Routledge, 2015.

4. Altbach P.G., Knight J. The internationalization of higher education: Motivations and realities // Journal of Studies in International Education. 2007. Vol. 11, No. 3–4. P. 290–305.

5. Deardorff D.K. The identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization // Journal of Studies in International Education. 2006. Vol. 10, No. 3. P. 241–266.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”.

7. Doniyorova Sh.Sh. Oliy ta'lim muassasalari xalqarolashuvi sharoitida talabalar faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari: PhD dissertatsiyasi. Samarqand, 2026.